

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IBRAGIMOV AHMAD TULQINOVICH

**FTORLI BIRIKMALARNING QORAMOLLAR ORGANIZMIGA
TOKSIK TA'SIRI**

**16.00.04 – Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi,
ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Ibragimov Ahmad Tulqinovich

Forli birikmalaming qoramollar organizmiga toksik ta'siri..... 5

Ибрагимов Ахмад Тулкинович

Токсическое действие соединений фтора на организм крупного
рогатого скота..... 21

Ibragimov Akhmad Tulkinovich

Toxic effect of fluorine compounds on the body of cattle..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**


**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

IBRAGIMOV AHMAD TULQINOVICH

**FTORLI BJRIKMALARNING QORAMOLLAR ORGANIZMIGA
TOKSIK TA'SIRI**

**16.00.04 – Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi. Veterinariya sanitariyasi,
ekologiyasi, zoogigiyenasi va veterinar-sanitariya ekspertizasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**



Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/V122 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ssuu.uz) hamda «ZiyoNet.uz» axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Salimov Yunus veterinariya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Niyazov Hakim Bakoyevich veterinariya fanlari doktori, professor Yuldashev Soatboy Jiyanbayevich tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019 V.12.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «16» 02 soat «14»⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuu@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14334 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel.: (99866) 234-76-86; Fax: +998662347686.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «16» 02 kuni tarqatildi.
(2025 yil «3» 02 dagi № 1 - raqamli reestr bayonnomasi)



X.B.Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
biol.f.d., professor

S.B.Eshbo'riyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
koti, vet.f.d., dotsent

D.M.Norboev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, vet.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda butun jahon hamkorlik mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi bilan, atrof-muhitni yuqori darajada ifloslanishiga olib kelmoqda. Natijada ekologik jihatdan nosog'lom bo'lgan hududlar kengayib, joylardagi mahsuldor hayvonlar salomatligiga o'zining salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda. "Ekotoksikantlarni tuproq, suv, atmosfera va ozuqa tarkibida yuqori darajada bo'lishi hayvonlar organizmida moddalar almashinuvini buzilishiga, immunobiologik, endokrin tizim o'zgarishlariga hamda ko'payish tizim faoliyatida patologik jarayonlarni sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin"¹. Zamonaviy texnologiyalar asosida 1 tonna alyumin ishlab chiqarishda atmosferaga bir necha kilogramm HF, Na, F va chang shaklidagi flor ajraladi. Bunday holat Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Norvegiya, Braziliya, Yangi Zelandiya va Gretsiya davlatlarida asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Rossiya va ham bu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, dunyoda 300 dan ortiq flyuoroz o'choqlari mavjudligi aniqlangan. Flyuorozning tarqalish darajasini foiz hisobida ko'rsatilishicha, Afrika mamlakatlarida 46-84 foiz, Shimoliy Amerikada 27-78 foiz, Janubiy Amerikada 53-89 foiz, Avstraliyada 17-32 foiz va Yevropa mamlakatlarida esa 15-100 foizgachani tashkil qilmoqda. Dunyoda atrof-muhitni yuqori darajada ifloslantiruvchi toksikantlar, asosan, og'ir metall tuzlari (simob, qo'rg'oshin, kadmiy, mis, rux, margimush) ko'plab pestitsidlar va kimyoterapevtik moddalar hamda sanoat ishlab chiqarish chiqindilari hisoblanadi. Respublikamizda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida texnologik omillar ta'siridan chorva mollari orasida turli tizim kasalliklari tufayli o'lim holatlarining sodir bo'lishi, sohada mahsuldorlikni pasayishi va reproduktiv faoliyatda buzilishlarga olib kelmoqda. Chorvachilik sohasida ushbu patologik jarayonlarni oldini olish va samarali davolash chora tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda flor va uning birikmalari xalq xo'jaligining turli sohalarda qo'llanilishi oqibatida, xususan, alyumin va turli rangli metallar, mineral o'g'itlar, koks, po'lat, keramika, shisha, g'isht ishlab chiqaruvchi zavodlar chiqindilari va oqava suvlari bilan atrof-muhitga ajralib chiqadi. Tojikiston alyumin zavodi chiqindisi bo'lgan floridlarning hududlar bo'yicha joylardagi me'yoriy ko'rsatkichlari mahsuldor chorva mollari organizmiga o'ziga xos toksik ta'sirlari, zaharlanishlardagi toksikodinamik va toksikokinetik xususiyatlari, reproduktiv faoliyatida yuzaga keladigan patologik jarayonlar, chorva mollari mahsulotlari sifatiga veterinariya sanitariya ekspertizasi va zaharlanishlarni oldini olish va davolashning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakat oziq ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5303, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-

¹ Донник, И.М. Экология и здоровье животных / И.М. Донник, П.И. Смирнов. Екатеринбург, 2001. 331с.

2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»²gi, 2020-yil 29-yanvardagi «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4576-son, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishni V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ftorli birikmalar atrof-muhit ekologiyasi va tirik organizmlarga ta'sir xususiyatlarini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Xorijiy mualliflardan, xususan, A.A.Baranova, A.S.Kazishka, T.D.Grexova, A.A.Javorankov, Yu.P.Tendelov, L.D. Lukyanova, J.S.Bellet, N.Molima-Frecho, D.F.Ibishov, R.D.Gobovich, A.A.Skiba, J.I.Kaziev, Ye.P.Yanin, I.C.Boulton, K.N.Totsche, W.M.Edmondslar tadqiqotlar olib borgan.

Respublikamiz olimlaridan: V.R.Xayitov, A.J.Raxmonov, X.B.Yunusov, Yu. Salimov, Z.Tojiboev, L.I.Xo'janova, X.N.Egamnazarov, S.Sh.Yuldoshev, T.I.Iskandarovlar tomonidan bir qator ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ilmiy manbalardan olingan adabiyot ma'lumotlarining tahlili bugungi kunda mamlakatimizda sanoat chiqindisi ftorli birikmalarni qoramollar organizmiga surunkali ta'siridan yuzaga keladigan patologik jarayonlarni oldini olish va uni samarali davolash usullari bo'yicha yetarlicha o'rganilib, asoslanmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining QX-A-QX-2018-219 «Ekologik va texnogen omillar ta'siridan hayvonlar va parrandalar organizmida yuzaga keladigan patologiyalar, ularni oldini olish choralarini va davolashning takomillashgan usullarini ishlab chiqish va joriy etish» (2018-2020 yy.) hamda PZ-202012141 «Chorva mollari va parrandalar immun tizimini mustahkamlovchi, kasalliklardan himoyalovchi hamda reproduktiv faolligi va mahsuldorligini oshiruvchi oddiy xlorella (*Chlorella vulgaris*) o'simligidan tabiiy dorivor biologik faol moddalar olish texnologiyasini yaratish» mavzularidagi ilmiy-amaliy davlat dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tojikiston alyumin zavodi chiqindilari tarkibi va miqdorini aniqlash, flordalarni yirik shoxli hayvonlar organizmidagi toksikodinamikasi va toksikokinetikasini o'rganish, zaharlanishlarni oldini olish hamda davolashning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

Tadqiqotning vazifalari:

Surxandaryo viloyati chegara hududlaridagi Tojikiston alyumin zavodi chiqindilarining tarkibiy qismi va miqdorini aniqlash;

floridlarni yirik shoxli hayvonlar organizmidagi toksikodinamikasini o'rganish;

floridlarni yirik shoxli hayvonlar organizmidagi toksikokinetikasini o'rganish;

florli sanoat chiqindilari ta'sirida bo'lgan qoramollarning suti va go'shti sifat ko'rsatkichlarini veterinariya sanitariya jihatidan baholash;

qoramollarni floridlar bilan surunkali zaharlanishlarini oldini olish va davolashda bir qator farmakologik preparatlar samaradorligini sinovdan o'tkazish va baholash;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida, Surxandaryo viloyati, Sariosiyo tumani chegara hududidagi yirik shoxli hayvonlar hamda ularning sut va go'sht mahsulotlari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida sanoat chiqindisi ftor ta'sirida bo'lgan yirik shoxli hayvonlar suti va go'shtining sifat ko'rsatkichlari hamda zaharlanishlarni oldini olish va davolash tadbirlari kiradi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda klinik, fotometrik, toksikologik, gematologik, immunologik, potensiometrik, suyuq gazli xromatografiya, veterinariya sanitariya, ozuqa namunalarini zootexniya jihatidan tahlil qilish hamda statistik ishlov berish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sariosiyo hududidagi sigirlarning 16 foizi, buzoqlarni 10 foizi Tojikiston alyumin zavodi chiqindisi bo'lgan ftor bilan zaharlanish holati hamda suvdagi ftorning 1,7 mg/l, havoda vodorod floridi 0,11 mg/m³, suvdagi oltingugurt angidridi 0,11 mg/l, fenol 0,008 mg/l, mis 159 mg/l ni tashkil etishi aniqlangan;

natriy florid eritmasining oq sichqonlarda o'tkir zaharlovchi miqdor ko'rsatkichlari 50 mg/lni, o'ldiruvchi dozasi esa 450 mg/l ni tashkil etishi ilmiy asoslangan;

florli sanoat chiqindisi ta'sirida bo'lgan sigirlar suti tarkibidagi ftor miqdori 3 mg/kgni tashkil etishi aniqlanib, sutni veterinariya-sanitariya jihatidan ikkinchi navga mansub ekanligi aniqlanib baholangan;

qoramollarni floridlar bilan surunkali zaharlanishlarini oldini olishda 2 foizli kalsiy xlorid eritmasi (1 ml/kg), xlorella suspenziyasi (2,5 ml/kg) va faollashgan ko'mimi (0,1 gr/kg) ichirishga asoslangan profilaktik usulining samarasi yuqoriligi aniqlangan;

flor bilan zaharlangan qoramollarni davolashda 10 foizli kalsiy xlorid eritmasi (0,5 ml/kg vena qon tomiriga), magniy sulfat eritmasi (2,5 ml/kg ichga), vitamin D₂ (Ergokaliferol 200000 XB/bosh), gamovit (0,1 ml/kg vena qon tomiriga), xlorella suspenziyasi (2,5 ml/kg ichga), 20 foizli kofein eritmasidan (0,05 ml/kg teri ostiga) yuborishga asoslangan majmuasining samaradorligi yuqoriligi tajribalarda isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxandaryo viloyati chegara hududlaridagi Tojikiston alyumin zavodi chiqindilarining tarkibiy qismi va miqdorini aniqlanganligi va uni ta'siridan

mahsuldor hayvonlar organizmida yuzaga keladigan patologik jarayonlar ilmiy asoslangan;

floridlar yirik shoxli hayvonlar organizmidagi toksikodinamikasi va kinetikasini aniqlanganligi hamda sanoat chiqindilari ta'sirida bo'lgan qoramollar suti va go'shtining sifat ko'rsatkichlariga veterinariya sanitariya jihatidan baholash usuli ishlab chiqilgan;

yirik shoxli hayvonlar floridlar bilan surunkali zaharlanishlarini oldini olish va ularni davolashda bir qator farmakologik preparatlar samaradorligi sinovdan o'tkazilganligi hamda ularni qo'llash usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi zamonaviy usul va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, klinik, fotometrik, toksikologik, gematologik, immunologik, veterinariya sanitariya, ozuqa namunalari zootexniya jihatidan tahlil qilish usullaridan foydalanish, raqamli ma'lumotlarga ishlov berish va olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi va shuningdek, laboratoriya hamda ishlab chiqarish tajribalarining dalolatmolariga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab ijobiy baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, sanoat chiqindilari tarkibidagi floridlar ta'sirida bo'lgan yirik shoxli hayvonlar organizmida yuzaga keladigan patologik jarayonlar, zaharlanish toksikodinamikasi va kinetikasining aniqlanganligi, sut va go'sht mahsulotlarining veterinariya sanitariya jihatidan baholab ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Tojikiston alyumin zavodi chiqindilarining tarkibi va miqdori, ushbu chiqindilar ta'sirida bo'lgan qoramollar suti va go'shti sifatini baholab hamda floridlar bilan qoramollarni surunkali zaharlanishlarini oldini olish va takomillashgan davolash usuli bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Florli birikmalarning qoramollar organizmiga toksik ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

“Chorva mollarini floridlar bilan zaharlanishlarini oldini olish va davolashni takomillashgan usuli bo'yicha tavsiyanoma” tasdiqlangan, veterinariya amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-496-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'llash hisobiga florli birikmalar bilan buzoqlar zaharlanishini oldini olish va sigirlarni davolashda yuqori samaradorlikka erishilgan;

1 yoshgacha bo'lgan buzoqlarni florli birikmalar bilan zararlanishini oldini olish maqsadida 3 kun davomida, 3 kun oraliq bilan, 3 marta ichga 2% li kalsiy xlorid eritmasidan (200 ml/boshga), xlorella suspenziyasidan (500 ml/bosh) va faollashgan ko'mirdan (10 gr/bosh) ichirishga asoslangan florli intoksikatsiyalarni davolash usuli Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani hamda Samarqand viloyati sharoitidagi qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga joriy qilingan (O'zbekiston

Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-496-son ma'lumotnomasi). Ushbu davolash usuli eng samarali usul ekanligi aniqlanib, har bir buzoq hisobiga o'rtacha 501076 so'mdan iqtisodiy samara olish imkonini beradi va bunda harajatlar qoplami 10,38 so'mni tashkil etgan;

yosh buzoqlarga 50 kunligidan keyin ularga og'iz orqali 3 kun davomida 3 kun tanaffus bilan jami uch marta ichga har bir boshiga 2% li kalsiy xlorid eritmasidan 200 ml/bosh, xlorella suspenziyasidan 500 ml va faollashgan ko'mirdan 10 gr/bosh miqdorida berishga asoslangan oldini olish usuli Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani sharoitidagi qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-avgustdagi 02/23-496-son ma'lumotnomasi). Ushbu oldini olish usulining samaradorligi yuqori bo'lib buzoqlarning kunlik tana vaznining o'sish farqi nazoratga nisbatan 27,13 % ga yuqori bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta Respublika va 1 ta xorijiy jumallarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta tavsiyanoma tayyorlangan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «Kirish» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning ob'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «Adabiyot ma'lumotlarining tahlili» deb nomlangan birinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi «Ftor birikmalarining tabiatda tarqalishi va uning amalda qo'llanishi» deb nomlangan qismida dastlabki ftor birikmalarini ilmiy jihatdan o'rganilishi, tabiatda tarqalishi, organik va anorganik birikmalari va sanoatda qo'llanilishi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

«Ftoridlarni tirik organizmlarga o'ziga xos ta'sirlari va patologik jarayonlar» deb nomlangan ikkinchi qismida floriidlarni organizmga tushish yo'llari, hayvonlarni zaharlovchi asosiy ftor birikmalari, ftor ta'sirida yuzaga keladigan patologik

jarayonlar keltirilgan. "Ftorli birikmalarni organizmdagi va ozuqalar tarkibidagi umumiy miqdor ko'rsatkichlari" deb nomlangan uchinchi qismida ftorni organizmda, organ va to'qimalari hamda ozuqabop o'simliklar va ichimlik suvi tarkibidagi miqdor ko'rsatkichlari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "Tadqiqotlar materiallari va uslublari" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, obekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari 2020-2023 yillar davomida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Farmakologiya va toksikologiya" kafedrası, Surxandaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi «Zuxriddin Raxmon Farvon» va Samarqand tumanidagi Samarqand star invest" fermer xo'jaliklarida bajarilgan.

Ftorli birikmalar bilan zararlangan chorva mollarni aniqlash maqsadida 90 bosh sigirlar, 60 bosh buzoqlar va 30 bosh buqalarda dispansirizatsiya tekshiruvlarini o'tkazdik. Tadqiqot tajribalarida 33 bosh sigirlar, 30 bosh buzoqlar va 8 bosh buqalardan foydalanildi. Laboratoriya tekshirishlari Samarqand davlat veterinarariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti «Farmakologiya va toksikologiya», va "Veterinariya sanitariya ekspertiza" kafedrasiga qarashli laboratoriyalarida hamda "Samarqand diagnostik markazi" laboratoriyasida o'tkazildi.

Qoramollardan olingan qon namunalarning morfologik ko'rsatkichlari BIOBASE BK-6190 va biokimyoviy ko'rsatkichlari esa yarim avtomatlashgan Mindray BA-88A gemanalizatorlari yordamida aniqlandi. Qoramollar go'shtining sifat ko'rsatkichlarini veterinariya sanitariya jihatidan baholashda V.A.Makarov va boshqalar (1986) tomonidan tavsiya qilingan organoleptik biokimyoviy hamda bakteriologik baholash usullaridan foydalanildi.

Qon zardobi tarkibidagi umumiy oqsil kolorometrik, oqsil fraksiyasi esa neferometrik usuli yordamida aniqlandi. (I.P.Kondraxin, 2004).

Qoramollar organizmining nospesifik rezistentligi va qonning lizotsimli faolligi V.G.Dorofeychuk (1977) usuli yordamida aniqlandi. Bakteritsid faollik esa fotokolorimetrik usulda aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Ftoridlarni yirik shoxli hayvonlar organizmiga ta'sirini o'rganish tajribalari" deb nomlangan uchinchi bobida ftoridlarni yirik shoxli hayvonlar organizmiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajriba natijalari keltirilgan. Ushbu bobning "Tojikiston alyumin zavodi chiqindilari tarkibi va uning Sariosiyo tumani hududidagi me'yoriy ko'rsatkichlarini aniqlash" deb nomlangan birinchi bo'limida hozirgi paytda Tojikiston alyumin zavodidan chiqadigan zaharli chiqindilarni, Sariosiyo va Uzun tumanlari xududlaridagi miqdor ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqodlarimizda quyidagi holat aniqlandi.

Xususan ftor suvda 1,7 mg/l, vodorod ftoridi xavoda 0,11 mg/m³, oltingugurt angidridi 0,11 mg/l, azot oksidi 0,005 mg/l, uglevod oksidi 1,3 mg/m³, zararli chiqindilar xavoda 0,064 g/s, fenol suvda 0,008 mg/l, mis suvda 159 mg/l, suvning minerallashuv jarayoni 1562,3 mg/l ni tashkil qildi.

Texnogen omillar ta'sirida bo'lgan xududdagi suvning zararlantirish darajasini o'rganish laboratoriya tahlili Surxandaryo Obizarang daryolari hamda Surxandaryo

Shurchi hududlari suvlarining pH ko'rsatkichi 7,60, kislorod 8,70 mg/l, azot ammoniy 0,06 mg/l, azot nitriti 0,000 mg/l azot nitriti 1,18 mg/l, fosforlar 0,004 mg/l qattiqligi 5,70 mg/ekvl/l, mineralashuvi 413 mg/l, xloridlar 14,7mg/l, sulfatlar 159 mg/l, fenollar 0,008 mg/l, mis 1,86 mkg/l, rux 2,43 mkg/l, xrom 0,5 mkg/l bo'lganligi aniqlandi.

Olingan ushbu ma'lumotlar hududlarda ftor, vodorod floridi, uglevod oksidi, zararli chiqindilar fenol, mis, sulfat miqdorlarini hamda suvning mineralashuv jarayonini yuqori ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Natriy floridni oq sichqonlar organizmiga zaharlilik va xavflilik darajasini aniqlash" deb nomlangan ikkinchi bo'limida, turli xil dozalardagi natriy florid eritmasini oq sichqonlar organizmiga surunkali ta'siridan yuzaga kelgan o'zgarishlar bayon qilingan.

Aniqlanishicha tajriba guruhidagi 3 oy mobaynida turli xil dozadagi natriy florid eritmasini qabul qilgan oq sichqonlar ichki organlari hamda tishlaridagi o'zgarishlar qayd qilindi. Natriy florid eritmasi dozasi oshib borishi bilan oq sichqonlarning yashovchanligiga o'zining salbiy ta'sirini namoyon qilishi aniqlandi.

Tarkibida 1,5 mg/l miqdorida natriy florid qabul qilgan 1 tajriba guruhi oq sichqonlar tishi emal qismida chiziqcha hosil bo'lganligi va ftorni to'qimalarda yuqori miqdorda to'planganligiga, 15 mg/l qabul qilgan ikkinchi tajriba guruxida esa sichqonlarning yarmida qalqonsimon bezida, buyraklar va suyakda patogistologik o'zgarishlar kuzatildi.

Bundan tashqari, ichimlik suvi tarkibida ftor miqdori 50 va 150 mg/l bo'lganda oq sichqonlar tishidagi o'zgarishlardan tashqari, ichki organlar va suyaklarda patogistologik o'zgarishlar, fermentlar faolligining pasayishi va hayvonlar umumiy holatini yomonlashuvi bilan zaharlanishdan bitta oq sichqon (50 mg/l), keyingi guruxda esa (150 mg/l) uchta sichqonda ham zaharlanishdan o'lim holati kaxeksiya tufayli yuzaga keldi.

Ichimlik suvi tarkibida ftor 300 mg/l miqdorida bo'lgan tajribadagi oq sichqonlarda yuqoridagi o'tkir zaharlanish belgilari namoyon bo'lishi bilan to'rtta o'lim holati kuzatilgan bo'lsa, 450 mg/l bo'lgan tajriba guruhi oq sichqonlari o'tkir zaharlanishdan bir necha kun o'tgandan so'ng barchasida o'lim sodir bo'lganligi aniqlandi.

Nazorat guruhidagi oq sichqonlarni klinik kuzatishlarda aytarli salbiy o'zgarishlar kuzatilmadi.

Ushbu tajribadagi oq sichqonlar organizmida asosiy patologik o'zgarishlar ko'krak qafasida mayda nuqtasimon qon quyulishlar, muskullarda atrofiya, o'pkada qon quyulish va giperimiya, yurak qon tomirlar giperemiyasi, jigar, taloq va buyraklar kattalashgan, nuqtasimon qon quyulishlar, oshqozon shilliq qavvatlarida qizarish va qon tomirlarda giperemiya hamda qon quyulishlar bilan namoyon bo'ldi. Tishlar emal qatlamida sarg'ish-qo'ng'ir rangdagi nuqtasimon dog'lar mavjud bo'lib, suyaklar murtlashganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Ftorli birikmalarni yirik shoxli hayvonlar organizmidagi toksikodinamikasini aniqlash" deb nomlangan uchunchi bo'limida ftorli birikmalardan zaharlanishlar toksikodinamikasidagi o'zgarishlarni o'rganishda

asosan, ftor bilan zaharlanish jarayonida organizmda yuzaga keladigan klinik belgilarga, uning qon ko'rsatkichlari va immun tizimiga bo'lgan ta'sir xususiyatlariga hamda ftorni salbiy ta'siri natijasida yuzaga kelgan patologoanatomik o'zgarishlarga e'tibor qaratildi.

Yuqori miqdorda ftorni suv orqali tushishidan hayvonlarda holsizlik, uzoq vaqt davomida yotib qolish, oqsash, ishtahani pasayishi, teri va jun qoplamasini xurpayib qolishi va kuchli ozish sodir bo'ladi.

Aniqlanishicha ftorli birikmalarni surunkali ta'sirida bo'lgan buzoqlar qoni tarkibidagi eritrotsitlar miqdori nazoratga nisbatan 10,53 % ga, gemoglobinni esa 14,77% ga kamayganligi va leykotsitlar sonini esa 16,58% ga oshganligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar ftorni buzoqlar qonining morfologik ko'rsatkichlariga o'zining salbiy ta'sirini namoyon qildi.

Xuddi shuningdek ftorli birikmalarni surunkali ta'siri ostida bo'lgan ushbu tajribadagi buzoqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlarida quyidagi o'zgarishlar bo'lganligi aniqlandi. Qondagi umumiy oqsil miqdori nazoratga nisbatan 15,5 foizga, albuminlarni 19,8 foizga, glyukozani 8,85 foizga, umumiy kalsiy miqdori esa 12,11 foizga kamayganligi hamda umumiy bilirubinni 44,69 foizga, aspartaminotransferaza 12,24 foizga, alaninaminotransferaza 16,20 foizga va anorganik fosfor 13,10 foizga oshdi.

Ftor ta'sirida bo'lgan sigirlar qoni tarkibidagi eritrotsitlar miqdori nazoratga nisbatan 11,51 foizga, gemoglobinni esa 14,75 foizga kamayganligi va leykotsitlar sonini esa 15,98 foizga oshganligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar ftorni sigirlar qonining morfologik ko'rsatkichlariga o'zining salbiy ta'sirini namoyon qildi.

Ftor ta'sirida bo'lgan sigirlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlarida asosiy o'zgarishlar qondagi umumiy oqsil miqdorini nazoratga nisbatan 13,22 foizga, albuminlarni 9,29 foizga, glyukozani 5,80 foizga umumiy kalsiy miqdorini esa 9,23 foizga kamaydi hamda umumiy bilirubinni 27,54 foizga, aspartaminotransferazani 14,32 foizga, alaninaminotransferaza 16,4 foizga va anorganik fosfor 13,25 foizga oshdi.

Ftorni organizmga surunkali toksik ta'siri va jigardagi patologik jarayonlar tufayli ushbu o'zgarishlar yuzaga kelgan. Chunki jigar faoliyati asosan qon zardobidagi ALT va AST miqdoriga qarab baholanadi.

Sanoat chiqindisi ftorni surunkali ta'sirida bo'lgan buzoqlar qonining immunologik ko'rsatkichlarida limfotsitlar 10,4 foizga, T-limfotsitlar soni 9,01 foizga, tayoqcha neytrofillar soni 12,33 foizga, fagotsitar faollikning 8,81 foizga kamayganligi hamda B-limfotsitlar miqdorini 11,39 foizga, bo'g'in yadroli neytrofillar soni esa 5,58 foizga oshganligiga guvoh bo'ldik.

Ftorni surunkali ta'siridan buzoqlarning o'sish va rivojlanishi bilan immun tizimidagi neytrofillar fagotsitar faolligida pasayishlar kuzatildi.

Sanoat chiqindisi ftorni surunkali ta'sirida bo'lgan sigirlar qonining immunologik ko'rsatkichlari limfotsitlar 10,10 foizga, T-limfotsitlar soni 12,76 foizga, tayoqcha yadroli neytrofillar soni 11,32 foizga hamda fagotsitar faollikning 10,03 foizga kamayganligi va B-limfotsitlar miqdori 10,17 foizga, bo'g'in yadroli neytrofillar sonini esa 8,2 foizga oshganligini namoyon qildi.

Buzoqlar va sigirlar immun tizimidagi bunday qon ko'rsatkichlarini o'zgarishi, ftori organizmga immunodepressev ta'siri mavjud ekanligini bildiradi. Bunday holatlarda hayvonlar organizmida himoya faoliyatini pasayishi bilan ularni turli kasalliklarga nisbatan beriluvchanligini oshiradi.

Umuman olganda ftorli birikmalarni chorva mollari organizmidagi toksikodinamikasida, ftor organizmga so'rilganidan so'ng u qondagi ionlashgan kalsiy bilan o'zaro ta'siridan tezda gipokalsimiya holatini keltirib chiqaradi. Shuningdek ftor organizmga gemototoksik, gepototoksik, immunodepressiv, gonadotoksik va embriotoksik ta'sirlarini namoyon qildi.

Ftor bilan zaharlanishlardagi patologoanatomik o'zgarishlar asosan muskullar atrofiyasi, jigar, o'pka, taloq, buyraklar kattalashgan va nuqtasimon qon quyulishlar bilan kuzatildi. Tishlar emal qatlamida qo'ng'ir nuqtasimon dog'lar mavjud bo'lib, suyaklar murtlashgan holda flyuoroz kasalligini kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Dissertatsiyaning "Ftorli birikmalarni yirik shoxli hayvonlar organizmidagi toksikokinetikasini o'rganish" deb nomlangan to'rtinchi bo'limida ftor birikmalarini organizm ichki organlari va to'qimalariga tarqalishi, to'planishi hamda uni organizmdan chiqib ketish holatlari bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Biz o'tkazgan tajribadagi buqalar so'yilib laboratoriya tahlillarida buqalar tishi tarkibidagi ftor miqdori 478,3 mkg/g, suyak to'qimalarida esa 1121,4 mkg/g, jigarda 2,7 mg/kg, muskullarda 0,89 mg/kg, buyraklarda 3,86 mg/kg, o'pkada 1,92 mg/kggacha ekanligi aniqlandi.

Olingan ma'lumotlar ftor asosan tishlar, suyak to'qimalari, jigar, muskullar, buyraklar va o'pkada qoldiq miqdorlarini to'planishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Ftorli birikmalarni bilan zaharlangan qoramollar suti va go'shtining sifat ko'rsatkichlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash" deb nomlangan beshinchi bo'limida ftorli birikmalar bilan zaharlangan sigirlar suti va buqalar go'shti sifatini veterinariya sanitariya ekspertiza bo'yicha baholash ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

Sutning organoleptik sifat ko'rsatkichlarida rangi oq, kuchsiz sariqsimon, zichligi, 030 l/sm³, yog'liligi 3,4 foiz, kislotaligi 19^oT, ta'mi va hiditoza, sutga xos hidga ega, konsistensiyasi cho'kmasiz bir xildagi suyuqlik, sut tarkibidagi ftor-3mg/kg. Ushbu sut sifatini ikkinchi navli sut deb baholadik. Bunday sut mahsuloti temnik qaynatilib, so'ngra iste'molga chiqariladi.

Tajribadagi buqalar go'shtining organoleptik ko'rsatkichlarida go'shtning tashqi ko'rinishi yaxshi, yetarlicha qonsizlangan, o'ziga xos hidga ega. Go'shtning konsistensiyasi esa etarli darajada egiluvchan. Go'sht namunasi qaynatilganda shurvasi yuzida ko'pik xosil bo'lib, tiniqligi bir oz past bo'lsada, ta'mi talab darajada ekanligini ko'rsatdi. Bunday go'sht namunasi sifatini o'rtadan yuqori deb baholasak bo'ladi.

Go'shtning biokimyoviy ko'rsatkichlari tajriba buqalari go'shtida quyidagi ko'rinishda bo'ldi: go'shtning pH ko'rsatkichi - 6,2, amin amiakli azot miqdori - 1,24 va kislotali oksidlanish koeffitsenti esa 0,46 ekanligi aniqlandi. Go'sht o'rtadan yuqori sifatga ega bo'ldi.

Go'sht namunalarini bakteriologik tekshirish faqat ftor ta'sirida bo'lgan buqalar go'shtida amalga oshirildi. Go'sht namunasining yuza qatlamidan surtna olinib bakteriologik tekshirilganda, mikroskop ko'rish maydonida 5 tadan 12 tagacha mikroorganizmlar, asosan grammanfiy tayoqchalar va ayrimlari kokk shakldagi mikroblarni borligiga guvoh bo'ldik.

Go'shtning ichki qatlamlaridan namuna olinib, surtna tayyorlanganda mikroskopda 2 tadan 5 tagacha mikroorganizmlar borligi aniqlandi. Ftorni surunkali ta'sirida bo'lgan buqalar go'sht namunalarida patogen mikroorganizmlarning ko'payishi kuzatilmadi. Go'sht o'rtadan yuqori sifatga ega deb baholandi.

Ftoridlar asosan hayvonlar organizmida tishlar hamda suyaklarda to'planadi. Shu tufayli ftoridlar bilan zararlangan hayvonlar go'shti va suti iste'mol uchun xavfsiz bo'lib hisoblanadi. Chunki ftorda organizm uchun konserogen ta'siri mavjud emas.

Dissertatsiyaning "Qoramollarni ftorli birikmalar bilan surunkali zaharlanishlarini oldini olish va ularni davolashda farmakologik preparatlar samaradorligini sinovdan o'tkazish" deb nomlangan to'rtinchi bobida ftor birikmalari bilan buzoqlar va sigirlar zaharlanishlarini oldini olish va davolash maqsadida qo'llanilgan bir qator farmakoprofilaktik va farmakoterapevtik preparatlar samaradorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ushbu bobning "Buzoqlarni ftor bilan surunkali zararlanishini oldini olishda bir qator preparatlarni samaradorligini aniqlash" deb nomlangan birinchi bo'limida buzoqlarni ftor bilan surunkali zaharlanishlarini oldini olish maqsadida bir qator farmakologik vositalarni tanlab olishda ftorni chorva mollari organizmiga surunkali ta'siridagi toksikodinamikasining o'ziga hos xususiyatlaridan olingan natijalarga asoslanib quyidagi preparatlar samaradorligi sinovdan o'tkazildi.

Ushbu dori vositalari dastlab 3 kun davomida berilib 3 kun tanaffus bilan, yana xuddi shunday ikki marta qaytarildi (1-jadval).

Ushbu dori vositalari dastlab 3 kun davomida berilib 3 kun tanaffus bilan, yana xuddi shunday ikki marta qaytarildi.


1-jadval

Ftor ta'sirida bo'lgan buzoqlarni zaharlanishlarini oldini olishda tavsiya etilgan farmakoprofilaktik preparatlarni qo'llash tartibi

Gurux	Preparatlar	Hayvon turi	Miqdorlari va yuborish yo'li	Qo'llash davri, kun marta		
				1	2	3
1-tajriba	Kalsiy xlorid 2%	1 yoshgacha bo'lgan buzoqlar	1,0 ml/kg, ichga	1	1	1
	Faollashgan ko'mir		0,1 gr/kg, ichga	1	1	1
	Xlorella suspenziyasi		2,5 ml/kg, ichga	2	2	2
2-tajriba	Kalsiy xlorid 2%		1,0 ml/kg, ichga	1	1	1
	Bentonit		0,5 gr/kg, ichga	1	1	1
	Natriy gidrokarbonat		0,02 gr/kg	1	1	1

Birinchi tajriba guruhi buzoqlar qonining morfologik ko'rsatkichlari nazoratdagilarga nisbatan eritrotsitlar miqdori 4,59 foizga, gemoglobinni esa 4,27 foizga oshganligi va leykotsitlar soni 1,40 foizga kamaydi. Shuningdek 2 tajriba guruxi buzoqlarida eritrotsitlar miqdori 1,72 foizga, gemoglobinni esa 3,01 foizga oshganligi va leykotsitlar sonini 0,90 foizga kamayganligi kuzatildi.

Buzoqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlarida esa birinchi tajriba guruhida nazoratga nisbatan umumiy oqsil 1,22 foizga, albuminlar 4,34 foizga, glyukoza 9,50 foizga oshdi. Aspartataminotransferaza 1,65 foizga, alaninaminotransferaza 4,69 foizga, umumiy bilirubin 2,39 foizga, umumiy kalsiy 3,22 foizga va anorganik fosfor miqdorida esa 2,31 foizga nazoratga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ikkinchi tajriba guruhi buzoqlarida biokimyoviy ko'rsatkichlarida nazoratga nisbatan umumiy bilirubinni 8,13 foizga, glyukozani 5,88 foizga, aspartataminotransferaza 1,39 foizga oshganligi kuzatilgan bo'lsa, alaninaminotransferaza 3,39 foizga kamaydi. Qolgan boshqa ko'rsatkichlarida aytarli o'zgarish kuzatilmadi (1-rasm).




1-rasm. Buzoqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari ($X \pm S_x$)

Ikkinchi tajriba guruhi buzoqlarini immunologik ko'rsatkichlarida nazoratga nisbatan limfotsitlar 6,27 foizga, T-limfotsitlar soni 3,75 foizga, tayoqcha yadroli neytrofillar soni 4,74 foizga va fagotsitar faollikning 1,80 foizga kamayganligi hamda B-limfotsitlar miqdori 3,39 foizga, bo'g'im yadroli neytrofillar soni esa 0,81 foizga oshganligini namoyon qildi (2-rasm).

Olingan bunday ko'rsatkichlar flori birikmalar ta'siridagi buzoqlarga, ushbu ksenobiotiklar bilan zararlantirishini qo'shimcha ravishda oldini olishda birinchi tajriba guruhi buzoqlariga qo'llanilgan kalsiy xlorid, xlorella suspenziyasi va faollashgan ko'mirdan iborat farmakoprolifaktik vositalarni qo'llash samarali ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning "Ftor bilan surunkali zararlangan sigirlarni davolashda antidot va farmakoterapevtik vositalarni sinovdan o'tkazish hamda ular samaradorligini aniqlash" deb nomlangan ikkinchi bo'limida flori surunkali zaharlanishlarni davolash maqsadida qo'llanilgan bir qator preparatlarning farmakoterapevtik samaradorligi bo'yicha olingan ma'lumotlar keltirib o'tilgan.



2-rasm. Buzoqlar qonining immunologik ko'rsatkichlari (X±Sx)

Birinci tajriba guruhi sigirlariga kalsiy xlorid, magniy sulfat, D2 vitamini, gamovit, xlorella suspenziyasi va kofein preparatlari qo'llanildi. Nazorat guruhi sigirlarida hech qanday davolash muolajasi o'tkazilmadi.


Ushbu davolash usuli umumiy holatda 2 marta qo'llanildi. Dastlab 5 kun davomida qo'llanib 5 kun tanaffus bilan yana shu usulni 1 marta qaytarildi (2-jadval).

2-jadval

Ftor bilan surunkali zararlanishlarda tavsiya etilgan farmakologik preparatlarni qo'llash tartibi

Preparatlar	Hayvon turi	Miqdori va yuborish yo'llari	Davolash davrida preparatlarni qo'llash vaqti, kun				
			1 kunda	2 kunda	3 kunda	4 kunda	5 kunda
Kalsiy xlorid 10 %	Yirik shoxli hayvonlar, sigir	1 ml/kg, vena qon tomiriga	2	2	1	1	1
Magniy sulfat 2%		2,5 ml/kg, ichga	1	1	1	1	1
D ₂ vitamini		200000 XB, ichga	2	2	2	2	2
Gamovet		0,5 ml/kg vena qon tomiriga	2	2	1	1	1
Xlorella suspenziyasi		2,5ml/kg, ichga	2	2	2	1	1
Kofein 20 %		0,05 ml/kg, t/o	2	2	1	1	1

Sanoat chiqindisi flor ta'sirida bo'lgan sigirlarda farmakoterapevtik dori vositalari qo'llanilgandan keyingi qonning morfologik ko'rsatkichlarida nazoratga nisbatan eritrotsitlarni 8,31 foizga, va gemoglobinni 2,35 foizga oshganligi, leykotsitlarni esa 1,53 foizga kamaydi. Xuddi shunday dastlabki holatga nisbatan solishtirilganda esa eritrotsitlarni 27,11 foizga, va gemoglobinni 20,09 foizga oshganligi, leykotsitlarni esa 4,43 foizga kamaydi (3-rasm).




3-rasm. Sigirlar qonining morfologik ko'rsatkichlari ($\bar{X} \pm S_x$)

Sanoat chiqindisi bo'lgan floridlar ta'sirida bo'lgan sigirlarda farmakoterapevtik preparatlar qo'llanilgandan keyingi nazoratga nisbatan qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarida umumiy oqsil 2,46 foizga, albuminlar 2,67 foizga, glyukoza 6,49 foizga, umumiy bilirubin 1,82 foizga oshganligi va aspartamintransferaza 1,46 foizga, alaninaminottransferaza 1,93 foizga, umumiy kalsiy 4,84 foizga va anorganik fosfor esa 5,92 foizga kamaydi.


Dastlabki holatga nisbatan olganda esa qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarida umumiy oqsil 5,70 foizga, albuminlar 6,77 foizga oshganligi va glyukoza 29,9 foizga, umumiy bilirubin 27 foizga aspartamintransferaza 45,08 foizga, alaninaminottransferaza 44,51 foizga, umumiy kalsiy 25 foizga va anorganik fosfor esa 14,63 foizga kamayganligi aniqlandi (4-rasm).

Sanoat chiqindisi flori surunkali ta'sirida bo'lgan va farmakoterapevtik vositalar yordamida davolangan sigirlar qonining immunologik ko'rsatkichlarida nazorat guruhiga nisbatan limfositlarni 1,4 foizga, T-limfositlarni 3,73 foizga, tayoqcha yadroli neytrofilarni soni 6,78 foizga, fagositar faollik 2,43 foizga kamayganligi va B-limfositlarni 1,01 foizga, bo'g'im yadroli neytrofilarni esa 1,98 foizga oshganligini namoyon qildi. Floridarni surunkali ta'sirida bo'lgan va farmakoterapevtik vositalar yordamida davolangan sigirlar qonining immunologik

ko'rsatkichlarida tajriba boshiga nisbatan limfositlarni 9,65 foizga, T-limfositlarni 10,34 foizga, tayoqcha yadroli neytrofililar 5,1 foizga, fagositlar faollik 8,43 foizga oshganligi va B-limfositlarni 8,31 foizga, bo'g'im yadroli neytrofilarni esa 5,74 foizga kamayganligini ko'rsatdi (5-rasm).



4-rasm. Sigirlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari ($X \pm S_x$)



5-rasm. Sigirlar qonining immunologik ko'rsatkichlari ($X \pm S_x$)

Shunday qilib olingan ushbu ko'rsatkichlar tavsiya etilgan davolovchi preparatlarni organizmda qonning morfologik va biokimyoviy ko'rsatkichlariga

hamda immun tizimiga zaharlanishlarda sezilarli ijobiy ta'siri mavjud ekanligi aniqlandi. Davolash samaradorligi esa 65 foizni tashkil qildi.

Ftorli birikmalarning qoramollar organizmiga toksik ta'sirini oldini olish va unga kurashish bo'yicha veterinariya tadbirlari uchun sarflangan 1 so'm xarajat hisobiga iqtisodiy samaradorlik 10,38 so'mni tashkil etdi.

XULOSALAR

1. Sariosiyo hududi chorva mollari orasida Tojikiston alyumin zavodi chiqindisi bo'lgan ftor birikmalari bilan zaharlanish holati umumiy 16 % sigirlarda hamda 10 % buzoqlarda kuzatildi. Ushbu tuman hududidagi zaharli sanoat chiqindisi bo'lgan ftor birikmalaridan ftor suvda 1,7 mg/l (me'yorida 0,7-1,5 mg/l), vodorod floridi havoda 0,11 mg/m³ ekanligi aniqlandi.

2. Tojikiston alyumin zavodi ta'sirida bo'lgan Sariosiyo tumani hududida o'sadigan ozuqabop o'simliklar xususan: ko'k beda tarkibidagi ftor miqdori mavsumiy bahor faslidagi ko'rsatkichlariga (11,2 mg/kg) nisbatan kuzda (12,8 mg/kg) yuqori bo'lganligi aniqlandi.

3. Laboratoriya oq sichqonlariga tarkibida 50 mg/l natriy florid eritmasi o'tkir zaharlovchi, 450 mg/l o'ldiruvchi dozasi aniqlandi. Natriy florid bilan zaharlanishlardagi asosiy patologik o'zgarishlar ko'krak qafasi va o'pkada nuqtasimon qon quyulishlar, jigar, taloq va buyraklar kattalashgan, yurak qon tomirlarda giperimiya, oshqozon shilliq qavatlarida qizarish hamda qon quyulishlar bilan namoyon bo'ldi. Tishlar emal qatlamida sarg'ish rangdagi qo'ng'ir nuqtasimon belgilar mavjud bo'lib, suyaklar murtlashgan.

4. Ftorli zaharlanishlar toksikodinamikasida 0,11 mg/m³ miqdorida vodorod floridi organizmga tushgan qonga so'rilishi bilan buzoqlar qoni tarkibidagi eritrotsitlar miqdorini nazoratga nisbatan 10,53% ga, gemoglobinni esa 14,77% ga, umumiy oqsilni 15,5% ga, albuminlarni 19,8% ga, glyukozani 8,85% ga, umumiy kalsiyni esa 12,11% ga kamayganligi hamda leykotsitlarni 16,58% ga, umumiy bilirubin 44,69% ga, aspartataminotransferazani 12,24% ga alaninaminotransferaza 16,20% ga va anorganik fosforni 13,10% ga oshganligi bilan tavsiflandi.

Ushbu olingan qon ko'rsatkichlar vodorod floridini organizmga gematotoksik ta'sirini namoyon qildi.

5. Vodorod floridi qoramollar organizmi immun tizimi faoliyatini susayishiga olib keldi. Natijada ushbu sanoat chiqindisini surunkali ta'sirida bo'lgan buzoqlar qon zardobidagi limfotsitlar 10,4%ga, T-limfotsitlar soni 9,01-% ga, tayoqcha neytrofililar 12,33% ga hamda fagotsitar faollik esa 8,81% ga kamaydi. Shu bilan birgalikda B-limfotsitlarni 11,39% ga, bo'g'in yadroli neytrofilarni esa 5,58% ga oshganligi aniqlandi. Immune tizimidagi bunday ko'rsatkichlar ftorli birikmalarni organizmga immunodepressiv ta'siri mavjud ekanligi aniqlandi.

6. Ftorli birikmalar ta'sirida bo'lgan buzoqlarga 50 kunligidan keyin ularga og'iz orqali 3 kun davomida 3 kun tanaffus bilan yana ikki marta ichga har bir boshiga 2% li kalsiy xlorid eritmasi (1 ml/kg), xlorella suspenziyasi (2,5 ml/kg) va

faollashgan ko'mir (0,01 gr/kg) miqdorida berib borilgan yosh buzoqlar tana vaznining nazoratga nisbatan 6,60 kgga, yoki 27,3% ga yuqori bo'lganligi aniqlandi.

7. Ftorli sanoat chiqindisi ta'sirida bo'lgan sigirlar suti tarkibidagi flor miqdori 3 mg/kgni tashkil qildi. Bunday sut ikkinchi navli sifatga, go'shtning esa organoleptik, biokimyoviy va bakteriologik tahlillariga muvofiq go'sht o'rtadan yuqori sifatga ega deb baholandi.

8. Vodorod ftoridining ta'sirida bo'lgan sigirlarga farmakoterapevtik dori vositalarini qo'llash orqali ular qoni morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarida nazoratdagilarga nisbatan eritrositlarni 8,31% ga, gemoglobinni 2,35% ga, umumiy oqsil 2,46 % ga, albuminlar 2,67% ga, glyukoza 6,49% ga, umumiy bilirubin 1,82% ga oshdi hamda leykositlarni 1,53% ga, aspartataminotransferaza 1,46 % ga, alaninaminotransferaza 1,93 % ga, umumiy kalsiy 4,84 % ga va anorganik fosfor esa 5,92 % ga kamayishiga erishildi.

9. Vodorod ftoridining surunkali ta'sirida bo'lgan va farmakoterapevtik vositalar 10 % li kalsiy xlorid eritmasidan (0,5 ml/kg), gamovitdan (0,1 ml/kg) miqdorlarida vena qon tomiriga, 20 % li kofein eritmasi (0,05 ml/kg) teri ostiga hamda 2 % li magniy sulfat eritmasidan (2,5 ml/kg), vitamin D₂ (Ergokalsiferol) (200000 XB/bosh), natriy gidrokarbonatdan (0,02 gr/kg), xlorella suspenziyasidan (2,5 ml/kg), faollashgan ko'mir (0,1 gr/kg), azkamar bentonit (0,25 gr/kg) yordamida davolanagan sigirlar qonining immunologik ko'rsatkichlari limfositlarni 1,4% ga, T-limfositlarni 3,73% ga, tayoqcha yadroli neytrofililar 6,78% ga, fagositar faollik 2,43% ga kamayganligi va B-limfositlarni 1,01% ga, bo'g'im yadroli neytrofilarni esa 0,74 % ga oshganligini namoyon qildi. Ushbu ko'rsatkichlar tavsiya etilgan davolovchi preparatlarni zaharlanishlarda organizm immun tizimiga sezilarli ijobiy ta'siri mavjud ekanligi aniqlandi.

10. Ftorli birikmalardan zaharlanishlarni oldini olishda qo'shimcha vositalar sifatida buzoqlarga 50 kunligidan keyin ularga og'iz orqali 3 kun davomida 3 kun tanaffus bilan yana ikki marta ichga har bir boshiga 2% li kalsiy xlorid eritmasidan 1 ml/kg, xlorella suspenziyasidan 2,5 ml/kg va faollashgan ko'mirdan 0,01 gr/kg jamlanmasini qo'llash samaradorligi 70 % ni tashkil qildi.

11. Ftordilar bilan zaharlanishlarni davolashda 10 % li kalsiy xlorid eritmasidan (0,5 ml/kg), gamovitdan (0,1 ml/kg) miqdorlarida vena qon tomiriga, 20 % li kofein eritmasi (0,05 ml/kg) teri ostiga hamda 2 % li magniy sulfat eritmasidan (2,5 ml/kg), vitamin D₂ (Ergokalsiferol) (200000 XB/bosh), xlorella suspenziyasidan (2,5 ml/kg), faollashgan ko'mir (0,1 gr/kg)dan iborat preparatlar jamlanmasini birgalikda qo'llash samaradorligi 65 % ni tashkil qildi.

12. Ftorli birikmalarning qoramollar organizmiga toksik ta'sirining oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan veterinariya tadbirlari uchun sarflangan 1 so'm xarajat hisobiga iqtisodiy samaradorlik 10,38 so'mni tashkil etdi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ,
ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

ИБРАГИМОВ АХМАД ТУЛКИНОВИЧ

**ТОКСИЧЕСКОЕ ДЕЙСТВИЕ СОЕДИНЕНИЙ ФТОРА НА
ОРГАНИЗМ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА**

**16.00.04–Ветеринарная фармакология и токсикология. Ветеринарная
санитария, экология, зоогиена и ветеринарно–санитарная экспертиза**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.1.PhD/V122

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.ssuvt.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Салимов Юнус
доктор ветеринарных наук, профессор

Официальные оппоненты: Ниёзов Хаким Бякович
доктор ветеринарных наук, профессор
Юлдашев Сватбой Жиянбаевич
кандидат медицинских наук, доцент

Ведущая организация: Научно-исследовательский институт ветеринарии

Защита диссертация состоится « 15 » 02 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.06/30.12.2019V.12.01 по присуждению ученых степеней (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. М.Улугбека, дом 77, тел: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (зарегистрирована за № 14 334). Адрес: 140103, город Самарканд, ул. М.Улугбека, дом 77, тел: (99866) 234-76-86, Факс: +998662347686.

Автореферат диссертации разослан « 3 » 02 2025 г.

(реестр протокола № 2 от « 3 » 02 2025 г.)



Юнусов Х.Б.
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, д.биол.н., профессор

Эшбуриев С.Б.
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.вет.н., доцент

Норбоев К.Н.
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.вет.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня развитие промышленного производства во всех странах мирового содружества приводит к высокому уровню загрязнения окружающей среды. В результате расширяются экологически неблагоприятные территории, что отрицательно воздействует на здоровье продуктивных животных. «Высокий уровень экотоксикантов в почве, воде, атмосфере и кормах может вызывать нарушения обмена веществ в организме животных, изменения в иммунобиологической и эндокринной системах а также возникновению патологических процессов в системе воспроизводства»¹. Для производства 1 тонны алюминия на основе современных технологий, в атмосферу выбрасывается несколько килограммов HF, Na, F и фтора в виде порошка. Эта ситуация остается одной из главных проблем в Великобритании, США, Германии, Норвегии, Бразилии, Новой Зеландии и Греции. В России этот показатель также увеличивается с каждым годом.

